

**KASB-HUNAR MAKTABLARIDA O'QITUVCHINING KREATIV QOBILIYATINING AHAMIYATI****Rahimjonova O'g'loy Maxammadzikriya QIZI***Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi***Shermatova Nargiza Maxammadjon QIZI***Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi***Sodiqova Sayyora Salohiddinovna***Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda kasb- hunar maktablarida o'qish muddati 2 yil bo'lib, 9-sinf bitiruvchilarini qabul qiladi. Bu yoshdagi o'quvchilar balog'at yoshida bo'lib, psixologik muammolarga uchraydigan davrga to'g'ri keladi. Bu esa o'qituvchilarga, ularga bilim berishda bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchidan yuqori kreativ qobiliyatni talab etadi.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, ijodkorlik kasb-hunar maktabi, o'qituvchi, pedagogik, qobiliyat, mutaxassis, kommunikativ qobiliyat.

**KIRISH:**

Kasb-hunar maktabi yoshlarga kasb-hunar ta'limi berishni amalga oshiruvchi o'quv yurti hisoblanadi. Kasb-hunar maktabi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ta'lim to'g'risidagi Qonun, mazkur Nizom hamda ta'lim organlarida ro'yxatga olingan Ustavga muvofiq amalga oshiradi. Kasb-hunar maktabi bazaviy maktablarning bitiruvchilari (9-sinflar), shuningdek, o'rta maktablarning bitiruvchilari hisobidan butlanadi. O'qish muddati 2 yil. Bo'lajak yosh ishchi va mutaxassislarni, shu jumladan shartnoma asosida kasb-hunarga tayyorlashning yuqori sifatli bo'lishini ta'minlash kasb-hunar maktabi faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

**KASB-HUNAR MAKTABINING VAZIFALARI:**

- o'quvchilarda kasb-hunar bilimlari, o'quvlari va ko'nikmalarini shakllantirish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitlarida o'quvchilarni faol mehnat faoliyatiga tayyorlash;
- o'quvchilarga kasb-hunar ta'limi berish bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim olish uchun imkoniyatlar yaratish; korxonalar va tashkilotlarning ishchilar va mutaxassislar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga bo'lgan talablarini qondirish.[1]

Kasb- hunar maktablarining yuqoridagi maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun o'qituvchilariga yuqori salohiyat, pedagogik texnika, kommunikativ qobiliyat, kreativ qobiliyat, bir so'z bilan aytganda kuchli pedagogik mahoratga ega bo'lishdek mas'uliyat yotadi. Chunki kasb-hunar maktablariga kelayotgan yosh o'quvchilar psixologik jihatdan qiyin davridan o'tayotgan davrga to'g'ri keladi. Shuning uchun ular bilan ishlash qiyinchilik tug'diradi. Bu esa o'qituvchilardan kreativlikni ta'lab etadi.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create"-yaratish, "creative"-yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi[3]

Hozirgi kunda o'qituvchidan kuchli kreativlikni ta'lab etadi.

Kreativlik – shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi. [4]

Kreativlik –ijodkorlik demakdir. Chunki har bir jarayonga ijodiy yondashish o'z maqsadimizda yuqori samara olish imkonini beradi.

"Ijodkorlik - bu ko'pchilikka noma'lum va murakkab xususiyatlarni o'rganishga imkon beruvchi tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda jamol ko'rsatishi bilan bog'liq o'ziga xos fikrlash faoliyati modeli", "Ijodkorlik - bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur", "Ijodkorlik - bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o'zgartirishni uddalay olish, maqsad sari intiluvchanlik, g'alaba uchun kurash, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zlikni anglashdir" kabi ta'riflar ijodkorlikning o'ziga xos mohiyati haqida ochib berilgan.[2]

O'qituvchi uchun ijodkorlik ya'ni kreativlik naqadar muhimligini kasb -hunar maktablarining o'quv jarayonida ham ko'rishimiz mumkin. Kasb -hunar maktablarining o'quv jarayoni umumiy o'rta ta'lim maktablaridan katta farq qiladi. Chunki kasb- hunar maktablarida umumta'lim fanlar bilan bir qatorda kasb-hunarga yo'naltirilgan bilimlarga ham ega bo'ladi. Qolaversa ishlab chiqarish ta'limi hamda ishlab chiqarish amaliyoti o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida, laboratoriyalarda, poligonlarda, kasb-hunar maktabining o'quv xo'jaliklarida, shuningdek, tuzilgan shartnomalarga ko'ra korxonalarda amalga oshiriladi

Kasb-hunar maktablarida o'quvchilar umumta'lim fanlarni o'rganish bilan bir qatorda, ma'lum bir sohaga yo'naltirilgan kasb- hunarni mutaxasisi bo'lib yetishib chiqadi. Ushbu ta'lim dargohini bitirgandan so'ng, diplom orqali mutaxassis sifatida faoliyat olib borishi mumkin. Shuning uchun o'quvchidan har bir fanni chuqur o'rganishi zarur. Chunki bu yerda dars jarayoni ham nazariy ham, amaliy shaklda darslar olib boriladi . Bu esa o'quvchilarga fanlarni o'zlashtirishda katta qiyinchilik tug'diradi. Ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tishda o'qituvchilardan kuchli kreativ yondashuv ta'lab etadi. O'qituvchi o'z fanini o'quvchilarga qiziqtirib, yetkazib bera olishi uchun undan har bir dars uchun alohida ijodkorlikni ta'lab etadi. O'qituvchi har kuni turli xil guruhga darsga kiradi. Ularning psixologik holati, bilim olish saviyasi, qiziqish va odatlari turli xil bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchidan har bir guruh uchun alohida ijodkorlik bilan yondashishni talab etadi. O'qituvchi har bir guruhi uchun alohida innovatsion metod, texnik vositalardan, interaktiv o'yinlar, grafik organayzerlardan guruhning holatiga qarab kreativlik bilan o'z maqsadiga erishishi mumkin.

#### **XULOSA:**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kun davr ta'labi nafaqat kasb-hunar maktablarida balki, barcha o'quv muassasalari o'qituvchilaridan kreativlik-ijodkorlikni talab qiladi. Hozirgi o'quvchilar internet bilan ko'r-ko'rona bog'langan bir davrda, o'qituvchilar darslik bilan chegaralanmasdan qo'shimcha adabiyotlar va ma'lumotlardan kreativ yondashib foydalangan holatda, o'quvchilarni darsga qiziqtirib, bilim berib, ko'nikma va malaka hosil qildirishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 11 dekabrda 439-son qarori

2. Tolipov.U,Q, Sharipov SH.S “O’quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar” “Fan” nashri 2012-yil 18,19-bet.

3. Sarvinoz Yusufali qizi, Saidg’aniyeva Shaxlo Rasul qizi, Abdullayeva Ilhomjon Abduhamid o’g’li Abduqunduzov ” Kreativlik pedagogik faoliyatni rivojlantirishning asosiy omili sifatida” «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // // // // //  
Volume: 1, ISSUE: 4 169-bet

4. Niyazmetova Nargiza, Bazarova Shirin” O’qituvchining kreativlik qobiliyati” PERIODICA journal of modern philosophy, Social Sciences and Humanities ISSN NO: 2720-4030 Volume 6, May, 2022